



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Dilshod Komolov, Asilbek Zulfiqorov

YANGI O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....5

2. Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov

JAMIYAT HAYOTIDA NURONIYLARNING TUTGAN O‘RNI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AMALIY IFODASI.....11

3. Nodira Toliboyeva

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TA‘LIM TIZIMIGA JALB ETISH: TARIXIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR.....18

4. Гулчехра Дадамирзаева

СОВЕТЛАРНИНГ КОСИБ-ХУНАРМАНДЧИЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ.....23

5. Akmal Mengliboyev

QIZIL ARMIYA BOSQINIGA QARSHI SURXON VOHASIDA KURASHNING BOSHLANISHI.....32

6. Ulug‘bek Mirzaliyev, Farhod Umurzoqov

SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI URBANIZASIYA JARAYONLARI.....39

7. Абдисаттор Қосимов

ЧОРВАЧИЛИКДА СУРХОН-ШЕРОБОД ВОҲАСИ АСРИЙ ХЎЖАЛИК АНЪАНАЛАРИ.45

8. Sardorbek Rahimberdiyev

TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK MIGRANTLARINING MADANIY IDENTIFIKATSIYASI VA KUNDALIK HAYOT STRATEGIYALARI (KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA).....49

9. Shavkat Shapiyev

FARHOD GIDRO ELEKTR STANSIYASI – O‘ZBEKISTONNING ENERGETIKA USTUNI...57

10. Diyora Chorshanbiyeva

2016-YILDAN KEYIN O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI VA YOSHLAR MASALASI.....65

11. Sitara Nosirova

DOSTONLARDA O‘ZBEK OILASINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI KO‘RINISHLARI.....72

12. Lutfillo Mamasaidov


O‘ZBEKISTONDA SAVODSIZLIKNING TUGATILISHI VA YANGI TA‘LIM TIZIMINI TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN.....76



Akmal Xolto‘rayevich Mengliboyev,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
dotsent, PhD

QIZIL ARMIYA BOSQINIGA QARSHI SURXON VOHASIDA KURASHNING BOSHLANISHI

For citation: Akmal Mengliboev. THE BEGINNING OF THE STRUGGLE IN THE SURKHAN OASIS AGAINST THE RED ARMY INVASION. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18941947>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Surxon vohasida yuzga kelgan keskin siyosiy vaziyatlar aks etirilgan. Bir tomondan tashqi xavf, ikkinchi tomondan ichki keskinlik amirni o‘z qurolli kuchlarini takomillashtirishga majbur qildi. Shu maqsadda mamlakat bo‘ylab safarbarlik e‘lon qilinib, 20-45 yosh oralig‘idagi yigitlar qo‘shinga chaqirildi. Qo‘shin yetti qismga bo‘lindi. Surxon vohasida ham Sovet hokimiyatini o‘rnatish choralari ko‘rila boshlandi. Shu munosabat bilan Termiz shahar soveti qayta tashkil qilinligi haqida ma‘lumotlar olish mumkin.

Kalit so‘zlar: Denov bekligidan, Mirza Abdulmo‘minbek, «o‘roqxon», Junaidxon, Boysun bekligi, Qizil armiya, 1-Turkiston diviziyasining, Qutbiddin Sudur, Mirza Safar, Taxta Qoracha.

Акмал Менглибоев,

Преподаватель Института предпринимательства и педагогике Денова доктор философии (PhD) по истории

НАЧАЛО БОРЬБЫ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ ПРОТИВ ВТОРЖЕНИЯ КРАСНОЙ АРМИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражена напряженная политическая ситуация, сложившаяся в Сурханском оазисе. С одной стороны, внешние угрозы, а с другой, внутренние противоречия вынудили эмира усилить вооруженные силы. С этой целью по всей стране была объявлена мобилизация, и в армию призывались молодые люди в возрасте от 20 до 45 лет. Армия была разделена на семь частей. Также были приняты меры по установлению советской власти в Сурханском оазисе. В этой связи можно получить информацию о реорганизации Термезского городского совета.

Ключевые слова: Из княжества Денов, Мирза Абдулмуминбек, «орокхан», Джунаидхан, Байсунское княжество, Красная Армия, 1-я Туркестанская дивизия, Кутбиддин Судур, Мирза Сафар, Тахта Карача.

Akmal Mengliboev,
Teacher of Denov Institute of Entrepreneurship and
Pedagogy Doctor of Philosophy (PhD) in History

THE BEGINNING OF THE STRUGGLE IN THE SURKHAN OASIS AGAINST THE RED ARMY INVASION

ABSTRACT

This article reflects the tense political situation that arose in the Surkhan oasis. On the one hand, external threats and on the other, internal tensions forced the emir to improve his armed forces. For this purpose, mobilization was announced throughout the country, and young men aged 20-45 were called up for the army. The army was divided into seven parts. Measures were also taken to establish Soviet power in the Surkhan oasis. In this regard, information can be obtained about the reorganization of the Termez city Soviet.

Index Terms: Denov beklid, Mirza Abdulmu'minbek, "orokkhan", Junaidkhan, Baysun beklig, Red Army, 1st Turkestan Division, Qutbiddin Sudur, Mirza Safar, Takhta Karacha.

1. Dolzarbligi:

Mazkur mavzu O'zbekiston tarixining murakkab va ziddiyatli davrlaridan birini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, XX asr boshlarida yuz bergan siyosiy jarayonlar, xususan Qizil Armiyaning O'rta Osiyoga kirib kelishi hamda unga qarshi mahalliy aholining qarshilik harakatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Surxon vohasida boshlangan ozodlik kurashi milliy istiqloq g'oyalariining erta shakllanish jarayonini aks ettiradi va xalqning mustaqillik, erkinlik va o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lidagi intilishlarini namoyon qiladi.

Birinchiidan, ushbu mavzu tarixiy adolatni tiklash nuqtai nazaridan dolzarbdir. Sovet davrida Surxon vohasidagi qurolli qarshilik harakatlari ko'pincha "bosmachilik" harakati sifatida biryoqlama talqin qilingan. Holbuki, bugungi kunda mustaqil tarixshunoslik nuqtai nazaridan bu voqealarni milliy-ozodlik harakati sifatida qayta baholash muhimdir. Bu esa tarixiy manbalarni xolisona o'rganish va voqelikka haqqoniy baho berishni talab etadi.

Ikkinchiidan, Surxon vohasi hududi strategik jihatdan muhim mintaqaga bo'lib, u o'sha davrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hamda Afg'oniston bilan tutash hududda joylashgan edi. Shu bois bu yerda yuz bergan qarshilik harakatlari nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy siyosiy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatgan. Mavzuni o'rganish orqali hududiy siyosiy vaziyat, harbiy harakatlar dinamikasi va xalqning ijtimoiy kayfiyati haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish mumkin.

Uchinchiidan, mazkur masala yosh avlodni vatanparvarlik, tarixiy xotiraga hurmat va milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Surxon vohasidagi qarshilik harakatlari misolida xalqning erkinlik yo'lidagi fidoyiligi, mardligi va jasorati namoyon bo'ladi. Bu esa bugungi kunda ham milliy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, mavzuning dolzarbligi shundaki, u O'zbekistonning mustaqillikka erishish jarayonini tarixiy ildizlari bilan bog'lab o'rganish imkonini beradi. XX asr boshlaridagi ozodlik harakatlari keyingi davrlardagi istiqloq g'oyalariining shakllanishiga zamin yaratgan.

2. Metodlar:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ob'yektivlik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, statistik tadqiqot, materilallrni tanlash va tasniflash tamoyillari aosisda yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

1918-1919 yillardagi noqulay tashqi muhit, Rossiya bilan savdo aloqalarining uzilib qolganligi, tez-tez bo'lib turgan to'qnashuvlar Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni og'irlashtirib qo'ydi. Jadidlarga qarshi ommaviy qirg'in, soliqlar miqdorining oshirilishi, amaldorlarning zo'ravonligi xalq noroziligiga sabab bo'ldi. Mamlakatda keskin siyosiy vaziyat yuzaga keldi. Bir tomondan tashqi xavf, ikkinchi tomondan ichki keskinlik amirni o'z qurolli kuchlarini takomillashtirishga majbur qildi. Shu maqsadda mamlakat bo'ylab safarbarlik e'lon qililib, 20-45 yosh oralig'idagi yigitlar qo'shinga chaqirildi. Qo'shin yetti qismga bo'lindi. Bular –

to'pchilar, otliq kazaklar, shefskiy, terskiy, arabbachcha, turkman askarlari va sarbozlardir. Kazak, shefskiy va terskiy guruhleri rus qo'shinlari namunasida tuzilgan edi. Otliq kazaklarni «kazanskiy» nomi bilan atashgan. Shefskiy va terskiy guruhidagi askarlar soni 10 ming kishidan iborat bo'lgan. Turkman otryadlari Kogon kazarmasida turib, Rossiyaning temir yo'lini qo'riqlashar edi. Sarbozlarning soni 20 ming kishi bo'lib, ularning vazifasi shaharlar va beklidlarni qo'riqlash edi.

Amirlikda otliq qo'shin yig'ish uchun mamlakat yerlari 300 tumanga bo'lindi. Har bir tuman 4 nafar bosh-adoq qurollangan otliq berishi lozim edi. Qo'shinning qurol-aslahasi ham ortib bordi. 1920 yil avgust holati bo'yicha Buxoro atrofida joylashtirilgan amir qo'shinlari 8,3 ming piyoda, 7,6 ming otliq askardan iborat bo'lib, 16 pulemyot va 23 to'pga ega edi. Bekliklarda esa 27 ming askar, 2 pulemyot va 32 to'p bor edi.

Bekliklarda askariy bo'linmalar tuzilar ekan, ularga amirning eng ishonchli kishilari bosh qilib qo'yildi. Jumladan, Sherobod bekligida Mirza Abdulmo'minbek boshchiligida amirning sara qismlari – merganlar va gazarlar bo'linmalari tashkil etildi. Qo'shin o'rtasida tartib-intizomni saqlash, tinch aholini askarlar tomonidan talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik uchun amir tomonidan mashhur din arboblari – boysunlik Sayyid Tojiddinxon va Sherobodlik Miyon Safiyullohga «o'roqxon» unvoni beriladi. O'sha davrda bu harbiy prokuror lavozimi va polkovnik unvoniga teng edi.

Bundan tashqari, Buxoroni qo'riqlash uchun bekliklardan askarlar yuborilgan. Chunonchi, Denov bekligidan Toshboy to'qsabo Ortiqniyozov, Mulla Mengziya Norqobil miroxur, Rahmonqul miroxur Jumayev singari sarkardalar o'z yigitlari bilan amir xizmatiga jo'natildilar. Xuddi shu beklidagi Xo'jamulki qishlog'idan Buxoro amiri askarlariga tilmoch qilib yuborilgan Eshniyoz Muhiddinov yaxshi xizmatlari uchun miltiq va oltin kamar bilan siylandi.

Amir Olimxon qo'shinni yanada takomillashtirishda chet ellik tutqunlardan ham unumli foydalandi. Jumladan, inqilobiy voqealardan keyin avstriyaliklar temir yo'l stansiyalaridan qochib ketishgan, ularning ko'pchiligi ketish uchun mablag'i bo'lmaganligi sababli amir xizmatiga kirib, unga o'q-dori yasab berish yoki harbiy texnikani sozlab berish bilan shug'ullanar edi. Buxoro amiriga jami ikki ming nafar avstriyalik xizmat qilgan. Avstriyaliklarning mehnati bilan amir qo'shinidagi to'plar soni 600 taga yetkazilgan. Biroq ularning juda katta qismini eski tipdagi to'plar tashkil etgan. Shuningdek, 1919 yil kuzida 250 nafar rumin askari ham kelgan bo'lib, ularning yarmi Buxoroda qoldirilgan, qolganlari esa Farg'onaga jo'natilgan edi.

Bolsheviklarni ko'p sonli qo'shin bilan yengib bo'lmasligini tushunib yetgan amir o'ziga ittifoqchi axtara boshladi. Shu maqsadda u qo'shni davlatlar bilan yaqinlashishga urinib ko'rdi. Dastlab 1918 yil bahorida amirning buyrug'i bilan Domullo Qutbiddin Sudur va To'raxo'ja naqib Afg'onistonga, amir Habibulloxon huzuriga jo'natildi. Har ikki davlat o'rtasida bitim tuzilib, Afg'oniston amiri tomonidan 6 ta fil va 200 nafar askar yuborildi. Keyinchalik ularning soni 2000 kishiga yetkazildi. Ammo 1918 yil yozida ular isyon ko'targanligi bois amirning buyrug'i bilan ishonchni yo'qotgan barcha afg'onlar mamlakatdan quvib chiqarildi.

1919 yil yozida Xorazmga Eshon Burhoniddin Xiyoboniy va Domullo Burhoniddin maxdum Ko'lobiy elchi qilib yuborildi. Elchilar Amudaryodan kema orqali suzib, 1919 yil 17 iyulda Xazoraspgga tushishdi. Elchilikdan maqsad, bolsheviklarga qarshi turish uchun amir xorazmliklardan ikki ming otliq askar olmoqchi edi. Junaidxon bu taklifga rozi bo'ldi va har ikki davlat o'rtasida ittifoq tuzilib, bolsheviklarga qarshi birgalikda kurashishga qaror qilindi. Natijada Xorazmda amir qo'shini uchun askar yig'ish boshlandi. O'sha yilning sentabrida Xivadan Buxoroga elchilar kelib, amirdan to'p, pulemyot va mablag' berib turishni iltimos qilishdi. Bunga javoban amir qurolsoz ustalar va ikki dona pulemyotni avstriyalik mutaxassis bilan birga qo'shib yubordi.

Buyuk Britaniya bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Negaki, 1918 yilda Turkmanistonning bir qismi inglizlar tomonidan bosib olingan, bu yerda Zakaspiy fronti ochilgan edi. Vaziyatdan foydalanmoqchi bo'lgan amir 1919-yil yanvarida Mirza Safar ismli mulozimini elchi qilib yuboradi. Muzokaralar natijasida ingliz generali Malleson hukumat ruxsati bilan amirga qurol-yarog' yetkazib berishni va'da qiladi. 1919-yil bahorida Ashxobodda turgan inglizlardan 13 ming dona miltiq va unga zarur bo'lgan o'q-dori sotib olinadi. O'sha yilning dekabrda 78 ta tuyaga yuklangan miltiq va o'n nafar ingliz mutaxassisi Buxoroga keladi. Bundan tashqari, 1919

yilning oʻzida Mashhaddan Xiva orqali 1200 miltiq, 12 pulemyot, 4 ta toʻp, koʻp miqdordagi oʻq-dorilar yuborildi. Qurol-yarogʻlarning kelishi bundan keyingi oylarda ham davom etdi.

Amir ingliz qoʻshinlarini Buxoroga ham taklif etmoqchi edi. B.I.Iskandarovning maʼlumotiga koʻra, 1919-yilning bahorida Buxoroda 600 nafar ingliz zobiti yigʻilgan edi. 1920-yilning may oyida Mashhaddan ingliz polkovnigi Shtennel boshchiligidagi 160 nafar ingliz va 60 nafar rus zobiti Buxoroga keldi. 1920 yilning yozida Buxoroda 80 ta ingliz va 300 ta rus zobiti toʻplangan edi.

Taʼkidlash joizki, 80, 160 yoki 600 ta ingliz zobitining Buxoroda yigʻilib kelganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarga tanqidiy qarash lozim. Garchi, 1919-yilda inglizlar Turkmaniston yerlariga bostirib kirishgan boʻlsada, Buxoro amirligidan juda uzoqda joylashgan edi. Qolaversa, Zakaspiy temir yoʻli bolsheviklar qoʻlida boʻlgan. Front liniyasi temir yoʻl boʻylab oʻtgan edi. Ingliz askarlari bor-yoʻgʻu ming kishi boʻlib, ular ham asosan hind askarlaridan iborat boʻlgan. Karvon yoʻli bilan bepoyon va kimsasiz choʻldan 600 nafar ingliz zobitining yuborilishi biroz shubhali tuyuladi.

Surxon vohasida ham Sovet hokimiyatini oʻrnatish choralari koʻrila boshlandi. Shu munosabat bilan Termiz shahar soveti qayta tashkil qilindi. Unga Chori Berkaliyev rais etib saylandi. Termiz revkomining birinchi raisi esa Yodgor Abdurahmonov boʻldi. Termizga Qizil Armiyaning yirik kuchlari joylashtirildi. Bu qoʻshin Surxon vohasidagi sovet hokimiyatining tayanchiga aylantirildi. Sherobod begi Toʻxtamishni agʻdarib tashlash maqsadida tashkil etilgan Sherobod inqilobiy qoʻmitasi ham Termizda joylashdi. Sherobodda sovet hokimiyatini oʻrnatish uchun Goncharenko boshchiligida maxsus otryad tuziladi. Bu ishda bolsheviklar tomoniga oʻtgan mahalliy aholi vakillari ham yordam berishdi. Ulardan tuzilgan otryadga Yodgor Abdurahimov va Hasan Amirxonovlar yetakchi etib tayinlanadi. Dushman tomonidan taʼqib qilingan Amir Olimxon avval Qarshiga qochadi. Taxta Qoracha degan joyda amir askarlari 1-Turkiston kavaleriya polki bilan toʻqnashadi. Bu jangda gʻolib chiqqan qizil bosqinchilar jiddiy qarshilikka uchramay, Kitob va Shahrisabz shaharlarini egallashadi. 10-sentabrda Boysunga kelgan amir Gʻuzor va Qarshi beklilaridan besh minglik askarni toʻplaydi. 2-Turkiston kavaleriya polki Gʻuzorni egalladi. 11-sentabr kuni 8-Turkiston oʻqchi polki Darband va Boysunni ham bosib oladi. Amir Olimxon Darband atroflarida ming kishilik askarini qoʻyib, oʻzi Dushanbega qarab chekinishga majbur boʻldi. Termizda shakllantirilgan kuchlar esa 1920-yilning 29-sentabrida Sherobodga hujum qilib uni egallaydi.

Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, Boysun va Sherobod beklilari aholisi Amir Olimxonning agʻdarilishini eshitib qattiq iztirob chekishgan, qir-adirlarga chiqishib yigʻilashgan. Bolsheviklarning Buxoro, Chorjoʻy, Qarshi va boshqa shaharlarda sodir etgan qirgʻinlari ularda dushmanga nisbatan kuchli nafratni yuzaga keltirgan. Amir, beklar va boshqa amaldorlar qochib ketishganida eʼtiborli din peshvolari xalqni, qoʻshin boshliqlari va urugʻ oqsoqollarini kurashga chaqirganlar. Surxon vohasida kelgindilarga qarshi qurolli harakat shunday boshlangan edi. Ozodlik harakatining asosiy ishtirokchilari oddiy xalq boʻlgan. Ruhoniylar esa, bu harakatni gʻoyaviy-siyosiy jihatdan ilhomlantirib turishgan. Shuning uchun ham Surxon vohasidagi ozodlik harakatini bostirishda bosqinchilar juda katta qiyinchiliklarga duch keldi va ogʻir talofatlar koʻrdi. Buni quyidagi misollarda koʻrish mumkin.

Boysun va Sherobod shaharlarining rus qoʻshinlari tomonidan egallanganidan qattiq tashvishlangan Miyon Safiyulloh oktabr oyining boshlarida qoʻshni beklilik va amlokдорliklarga chopar joʻnatib, yurt oqsoqollarini kengashga chaqiradi. Boysun bekliligining Xoʻjanqon qishlogʻida boʻlib oʻtgan kengashda oqsoqollar bir ovozdan dushmanga qarshi Muqaddas urush eʼlon qilishadi. Mamlakat boʻylab milliy ozodlik harakati boshlandi. Joʻra oqsoqol qishloqma-qishloq kezib, elni kurashga chaqirdi.

Miyon Safiyulloh oʻroq unvoniga ega boʻlib, uzoq yillar Boysun va Sherobod beklilarida yashovchi aholining talablarini amirga yetkazar, iloji boricha oddiy xalqning manfaatlarini himoya qilishga intilar qilar edi. Qolaversa, u kishi oʻz davrida naqshbandiya tariqatining yirik vakili edi. Shu sabab, xalq Miyon Safiyullohni hurmatlab Oʻroqxon eshon deb ham atagan.

Amirning buyrug‘i bilan Olimbek Boysun va Sheroboddagi qo‘shinlarga bosh qilib qo‘yildi. Sherobodning oldingi begi To‘xtamish esa Kelifga bek etib tayinlandi. Sherobodlik Mirza Abdulmo‘minbek qo‘rg‘onbegi lavozimida bo‘lib, qo‘shin yig‘a boshladi. 1920-yilning 17-oktabr kuni uning ming kishilik qo‘shini Sherobodni ozod qildi. Ammo milliy kuchlarning Boysunga ketganidan foydalangan bolsheviklar 10 noyabr kuni yana Sherobodni egallab olishdi.

Yuzaga kelgan og‘ir sharoitga qaramay, Mirza Abdulmo‘minbek Sherobodni ozod qilish uchun yirik hujum tashkillashtirishga muvaffaq bo‘ldi. 1920-yilning 27-noyabrda Sherobodga qilingan hujum dushman qo‘shinlarini esankiratib qo‘ydi. Termiz revkomi boshlig‘i Malinovskiy tomonidan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Inqilobiy qo‘mitasi (Revkom) va ichki ishlar noziri nomiga jo‘natilgan bir maxfiy hujjatda aytilishicha, Sherobod shahri atrofidagi qizil askarlarga qarshi milliy kuchlar turli miltiqlar bilan qurollangan 7000 kishilik qo‘shinni tashladi. Qo‘shin tarkibida Denov, Yurchi va Hisor shaharlarining aholisi bor edi. Ularning hujumi natijasida bolsheviklar qo‘shini 27-noyabr kuni Sherobodni tashlab chiqdi va Angor qishlog‘iga chekindi. Sherobod jangida qatnashganlarning aytishicha, amir qo‘shinlarining fanatizmi shu darajaga yetganki, ular qizil askarlarning to‘p va pulemyotdan tinimsiz o‘t ochishiga qaramay, faqat olg‘a intilishardi. Ularning ta‘qibi ostida ruslarning 8-polk askarlari 28-noyabr kuni Angorni tashlab, Termiz tomonga qochib ketishdi. Milliy kuchlar dushmani Termizga qadar ta‘qib etib, Sherobod bekligini ozod etdi. Erishilgan g‘alabalar butun elni to‘lqinlantirib yubordi. Bekliklarda qo‘shin yig‘ish ishlari avj oldi. Noyabr oyining o‘rtalariga kelib, Sharqiy Buxoroda amir askarlari soni 15 ming, ko‘ngilli – g‘azovotchilar esa 30 ming kishini tashkil etdi. 1920-yilning 23-noyabrda Boysunda Bo‘ri to‘qsabo qo‘mondonligida 7000 kishi, Denovda 1000 kishi, Sariosiyoda 3000 kishi, Bog‘cha qishlog‘ida Eshonboshi yetakchiligida 600 kishi, Sangardakda 140 kishi, Darbandda 100 kishidan ko‘proq qo‘shin yig‘ildi.

1920-yilning 4-dekabrda Qizil Armiya razvedka xizmati yuborgan xabarda aytilishicha, Amir Olimxon shimoliy yo‘nalishdagi Denov va Sariosiyoda 4740 kishi, Boysunda – 19-oktabrdan 23-noyabrga qadar 7000 kishi, 5 ta pulemyot va 1 ta to‘p, Sherobodda – 27 noyabr holati bo‘yicha 8000 kishi, so‘l sohil bo‘ylab turkman qishloqlari – Xamnab va Bo‘sag‘ada 5000 kishi (shundan 600 kishi qurollangan, 2 pulemyot bilan), Dushanbedagi amir qarorgohida 5000 kishi, 2 to‘p; Hisorda 5000 kishi, jami 34740 askar, 7 pulemyot va 2 to‘pdan iborat kuchlar to‘plangan edi. Albatta, mazkur raqamlar biroz bo‘rttirilgan, qolaversa, shulardan bor-yo‘g‘i 4000–5000 kishi qurollangan edi.

Turkfront qo‘mondonining buyrug‘iga asosan 1920-yilning 27-noyabrda Hisor ekspeditsiyasi tashkil etiladi. Diviziya komandiri M.Marsov uning qo‘mondoni etib tayinlandi. Ekspeditsiya tarkibida: M.YE.Roganov boshchiligidagi ikki otliq polkdan iborat bo‘lgan 1-otliq diviziya, V.G.Dyakonovning 1-otliq batareyasi, V.M.Ionovning Turkiston otliq diviziyasi, 1-Turkiston diviziyasining 3-brigadasi 16-kavaleriya polki, 1-Turkiston diviziyasining 5-va 6-kavaleriya polklari va artileriya divizionida bitta vzvod bor edi. Bu kuchlar bilan qizil askarlar 1920-yilning 17-dekabrda hujumga o‘tishdi.

Amir qo‘shinlari Boysun yo‘nalishida jiddiy qarshilik ko‘rsatishiga qaramay, dushman askarlari birinketin shahar va qishloqlarni egallay boshladi. 1-Turkiston kavaleriya polki Buzg‘ola darasida amirning 10000 kishilik askarini mag‘lubiyatga uchratdi. 4-yanvarda qizil askarlar Darbandga yetib keldi. Olimbek Darbandni saqlab qolish uchun Boysundan uch minglik askarini yubordi. Lekin qattiq to‘qnashuvda amir qo‘shinlari 150 nafar yigitini yo‘qotib, chekinishga majbur bo‘ladi. 5 yanvar kuni qizil askarlar Sayrob, Xo‘jabulg‘on, Dahanaijom va To‘da qishloqlarini egallashdi. Shundan so‘ng olti ming kishilik qizil qo‘shin shiddat bilan Boysunga yopirildi. Birinchi bo‘lib Boysunga Volkov boshchiligidagi 6-polk askarlari kirib keldi. Olimbek barcha kuchlarni to‘plab, dushmani to‘xtatmoqchi bo‘ldi. Boysun ko‘chalarida qattiq janglar bo‘lib o‘tdi. Shahar qurshovga oлина boshlangach, Olimbek omon qolgan askarlari bilan shahar tashqarisiga chekindi. To‘qnashuv vaqtida qo‘lga tushib qolgan Mullo Bolta, Xo‘jamshukur to‘qsabo va Mullo Hazratqullar 1921-yil 6-yanvar kuni ertalab hozirgi Ko‘ktepada, xalqni ko‘z o‘ngida otib tashlandi.

Boysundan so‘ng qizil askarlar Sherobodni bosib olish uchun jo‘natildi. Sherobodda 1920-yil 17-dekabrda boshlab Termiz yo‘nalishidan kelgan qizil askarlar bilan to‘qnashuvlar

bo'layotgan edi. Qizil askarlarga Termiz revkomi Malinovskiy rahbarlik qildi. Qattiq janglarga qaramay, Sherobodni egallashning iloji bo'lmayotgan edi. Dushman qo'shinining Boysun yo'nalishidan hujum qilishi Sherobod himoyachilarini og'ir ahvolga solib qo'yadi. 1921-yil 7-yanvar kuni Gumdahana darasida bo'lib o'tgan jangdan so'ng Sherobod bosib olinadi. Bolsheviklarning rasmiy hujjatlarida ko'rsatilishicha, Sherobodagi 8000 kishilik mujohidlar armiyasida har o'n kishiga bittadan miltiq to'g'ri kelardi, buning ustiga har miltiqqa 3-5 dona o'q bor edi, xolos. Qolaversa, ularning juda katta qismi endigina qo'shinga olingan va harbiy tayyorgarligi past edi. Abdulmo'minbek o'z askarlarini shahardan chiqarib, o'zi qo'rg'on darvozasi oldidagi tengsiz olishuvda shahid bo'ldi. Jasoratiga qoyil qolgan qizil askarlar uni Sherobod shimolidagi Xo'janqon qishlog'iga olib borib, katta hurmat bilan musulmonchilik qoidalariga asosan dafn etishdi. O'sha kuni halok bo'lgan Sherobod himoyachilari xalq tomonidan «shahidi a'lo» deb ataldilar. Ular ko'milgan joy Galashayit nomini oldi. Miyon Safiyulloh ham ko'p o'tmay vafot etdi va Xo'janqon qishlog'ida dafn etildi.

1921-yil 10-yanvarda V.M.Ionov boshchiligidagi Samarqand guruhi Chiroqchi va Kitobni, 11 yanvarda 1-Buxoro kavaleriya polki va 61-Turkiston polkining 28-sonli bronepoyezdi otliq razvedka otryadlari Yakkabog'ni bosib olishadi.

Tinimsiz janglar qizil askarlarni holdan toldiradi. Bundan milliy kuchlar unumli foydalanishadi. Olimbek Sherobod va Boysundagi kuchlarni bir joyga to'pladi. 1921-yilning 12-yanvarida 12 ming kishilik qo'shin bilan Boysunni shturm qiladi. Janglar natijasida shaharning sharqiy qismi ikki haftaga dushmandan ozod qilinadi. Janglarda Hisor ekspeditsiyasi qo'mondoni M.Marsov o'ldiriladi. Boysundagi qattiq to'qnashuvlarda amir qo'shinlaridan 3000 kishi, shu jumladan, Olimbek va Jo'ra oqsoqol ham halok bo'lgan edi.

Termiz, Shahrisabz va Qarshidan yetib kelgan qizil askarlar Boysundagi milliy kuchlar tormor etishadi. Halok bo'lgan M.Marsov o'rniga V.M.Ionov ekspeditsiyasiga boshlig'i etib tayinladi. 1921-yilning yanvarida Hisor ekspeditsiyasiga qo'shimcha ravishda 5 brigada, shu jumladan, 3 ta kavaleriya bridasi yordamga yuboriladi. Ana shu kuchlar yordamida 1921-yilning 11-fevralda qizil askarlar Bandixon darasi tomon yurish boshladi. Bu yerda 1-Turkiston kavaleriya polki askarlari Amir Olimxonning 10 minglik qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi.

4. Xulosalar:

Qizil Armiya bosqiniga qarshi Surxon vohasida boshlangan kurash voha aholisining siyosiy ongli, mustaqillikka intilgan va o'z hududiy yaxlitligini himoya qilishga tayyor kuch sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Ushbu harakatlar tasodifiy yoki tartibsiz qarshilik emas, balki mahalliy aholi manfaatlari, milliy qadriyatlar va an'anaviy boshqaruv tizimini saqlab qolishga qaratilgan ongli kurash edi.

Surxon vohasidagi voqealar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyatining murakkabligini, tashqi harbiy bosim hamda ichki siyosiy o'zgarishlar o'rtasidagi ziddiyatlarni yaqqol namoyon etadi. Bu jarayonlar hudud aholisi uchun og'ir sinov bo'lgan bo'lsa-da, ular milliy o'zlikni saqlash va erkinlik g'oyalarini asrab qolishda muhim tarixiy tajriba vazifasini o'tagan.

Mazkur mavzuni o'rganish orqali biz nafaqat o'tmishdagi qurolli to'qnashuvlarni, balki xalqning ma'naviy bardoshi, irodasi va ozodlikka bo'lgan qat'iy intilishini ham anglaymiz. Shuningdek, bu voqealar keyingi davrlarda shakllangan mustaqillik g'oyalarining tarixiy ildizlarini ochib beradi.

Umuman olganda, Surxon vohasidagi qarshilik harakatlari milliy tariximizning muhim sahifalaridan biri bo'lib, ularni xolis va chuqur tahlil qilish bugungi avlod uchun tarixiy xotirani mustahkamlash hamda o'zlikni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi Nofei (Foydali tarix). –Toshkent: Akademiya. 2001. –B. 56. (Muhammad Ali Baljuvani. Tarixhi Nafeiy (Useful History). – Tashkent: Academy. 2001. – P. 56.)

2. Istoriya grajdanskoy voyni v Uzbekistane. Tom II. – Tashkent: Nauka, 1964. –S. 289. (The history of the city of Grajdan and Uzbekistan. Volume II. – Tashkent: Nauka, 1964. -S. 289.)
3. Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi Nofeyi. – B.58. (Muhammad Ali Baljuvani. History of Nafei. –P. 58.)
4. Ayni S. Materiali po istorii Buxarskoy revolyutsii. – Moskva, 1926. –S. 245-247.
5. Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi Nofeyi. – B. 58.
6. Nepesov G. Iz istorii Xorezmskoy revolyutsii. 1920-1924 gg. –Tashkent, 1962. –S. 132
7. Nepesov G. Pobeda sovetского stroya v Severnom Turkmenistane. 1917-1936. – Ashxabad, 1950. –S. 135;
8. Genis V.L. Vitse-konsul Vvedenskiy. –S. 165; Ellis C.H. The Transcaspian Episode. L., 1963. –R.143.
9. Krasnaya letopis Turkestana. Kniga 1-2. –Tashkent, 1923. –S. 104
10. Gurko-Kryajin V.A. Angliyskaya intervensiya 1918-1919 gg. v Zakaspii i Zakavkazye // Istorik-marksist, №2, 1926. S. 133
11. Iskandarov B.I. Buxara (1917-1920). –S. 86.
12. Umarov I. Milliy mustaqillik uchun kurashganlar. –B. 61.
13. Istoriya grajdanskoy voyni v Uzbekistane. Tom II. –S. 316 - 317.
14. Rajabov Q., Rajabova S. Buxoro amirligi tarkibidagi Boysun bekligi hamda Boysunda Qizil Armiyaga qarshi kurash // «Boysun bahori» - milliy ma'naviyatimiz durdonasi (Xalqaro ilmiy anjumanga bag'ishlangan maqolalar to'plami). –Termiz: Surxon-Nashr, 2017. –B. 25.
15. Irkayev M.I. Istoriya grajdanskoy voyni v Tadjikistane. –Dushanbe, 1963. –S. 200.
16. Tursunov S. Surxon vohasida sovet rejimining o'rnatilishi. –B. 16.
17. Hayit N., Usmon T. Kurash yillari. –B. 19-20.
18. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 122-fond, 1-ro'yxat, 381-ish, 185-varaq.
19. Tursunov S. Surxon vohasida sovet rejimining o'rnatilishi. –B. 16.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000